

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARGA GEOMETRIK SHAKILLAR YORDAMIDA RASM CHIZISH KO'NIKALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Mirzayev Elnur

Shahrisabz davlat pedagogika institute San'atshunoslik kafedrasi o'qituvchisi

Abdullayeva Dilnoza

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi talabasi

Gmail:adilnoza899@gmail.com

[Tel:335461516](tel:335461516)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda rasm chizish ko'nikmasini shakllantirish jarayonida geometrik shakllardan foydalanishning o'rni va ahamiyati yoritiladi. Geometrik figuralar orqali chizishni o'rgatish bolaning tasvvuri, tafakkuri, fazoviy fikrlashi va estetik didini shakllantirishi ilmiy-pedagogik manbalar asosida izohlanadi.*

Kalit so'zlar: *Maktabgacha ta'lim, tasviriy faoliyat, geometrik shakl, rasm chizish metodikasi, fazoviy tasavvur, konstruktiv yondashuv.*

Аннотация: *В данной научной статье раскрывается роль и значение использования геометрических фигур в процессе формирования навыков рисования у детей дошкольного возраста. Объясняется, как обучение рисованию через геометрические формы способствует развитию воображения, пространственного мышления, логического мышления и эстетического вкуса ребёнка на основе научно-педагогических источников.*

Ключевые слова: *Дошкольное образование, изобразительная деятельность, геометрическая фигура, методика обучения рисованию, пространственное воображение, конструктивный подход.*

Annotation: *This scientific article highlights the role and significance of using geometric shapes in the process of developing drawing skills in preschool-aged children. It explains, based on scientific and pedagogical sources, how teaching drawing through geometric figures shapes the child's imagination, spatial thinking, reasoning, and aesthetic taste. Additionally, the stages of creating a drawing are analyzed according to the principle of moving from simple to complex.*



Keywords: *Preschool education, visual activity, geometric shape, drawing methodology, spatial imagination, constructive approach.*

Kirish.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar tasviriy ijod faoliyati orqali atrof-muhitni anglaydi, predmetlar shakli va tuzilishi haqida dastlabki tushunchalarni hosil qiladi. Ularning aksariyati real buyumlarning to'liq shaklini tasavvur qilishda qiynaladilar. Shu sababli pedagoglar chizishni o'rgatish jarayonida geometrik shakllardan - doira, kvadrat, to'g'ri to'rtburchak, uchburchak, oval, romb kabi figuralardan foydalanishni samarali metod sifatida qo'llaydilar. Bu usul bolaga murakkab shakllarni oddiy bo'laklarga ajratish, ularni qayta birlashtira olish, buyumning soddalashtirilgan modelini tasavvur qilish imkonini beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda rasm chizishga tayyorgarlik jarayonining psixologik asoslari. Maktabgacha yosh - bu bolaning tasavvur, xotira, fazoviy idrok, qo'l-harakat koordinatsiyasi rivojlanadigan eng muhim davrdir. Ayniqsa: 3-4 yoshda bola shaklni umumiy siluet sifatida qabul qiladi, 5 yoshda predmetni qismlarga ajratish va ularni taqqoslashga o'rganadi, 6-7 yoshda esa murakkab obyektlarni modellashtirishga qodir bo'ladi. Shu bois bu yoshda geometrik shakllarga asoslangan o'qitish bolaning kognitiv rivojiga to'liq mos keladi. Geometrik shakllar sodda, aniq va takroriy bo'lgani uchun bola ulardan foydalanib mustaqil rasm yaratishga tezroq o'rgana oladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ilmiy tadqiqot ishimizda adabiyotlarni tahlil qilish, kuzatish metodlaridan foydalanilgan. Tadqiqotimizni 5-6 yoshdagi bolalarda olib boramiz. Bu uchun davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga tashrif buyuramiz va bolalarga geometrik shakillar to'g'risida tushuncha beramiz. Bolalarga geometrik shakllardan foydalanib surat chizishni ko'rsatildi, bolalarga namuna berildi. Pedagog bolalarga atrofdagi buyumlar qaysi geometrik shaklga o'xshashligini aniqlashni taklif qiladi. Masalan: quyosh - doira, uy tomi - uchburchak, daraxt tanasi - to'g'ri to'rtburchak (1-rasm). Bu bolalarning analiz-sintez ko'nikmalari shakllanadi.






d)


1-rasm

Tadqiqotimizni o'tqazish uchun kerakli mahsulotlar va jihozlar: Har bir bola uchun qog'oz, qalam, geometrik shakillar uchun chizg'ich, mahsus har xil o'lchamda aylana o'yiqlari bor chizg'ich, qalam yo'nish uchun yo'ng'ich kerak bo'ladi. Birinchi suratimizda uyni tasvirlaymiz, bu uchun kvadrat, to'g'ri to'rtburchak, uchburchak kerak boladi (2-rasm). Keyingi suratimiz fel surati, bu geometrik shakillardan tuzilgan surat avvalkisiga nisbatan murakkabroq. Surat uchun aylana va yarim aylanadan foydalanilgan (3-rasm).

Fil suratidan so'ng bolalarga quyosh chizish topshirig'i beriladi. Quyosh asosi aylana, nurlari esa kesmalardan iborat bo'ladi. Shuningdek, Quyosh nurlarini kattaligi farq




2-rasm




3-rasm

qiladigan kesmalar bilan ifodalash mumkin (4-rasm). Bu orqali bolalarda tabiat obyektlarini shaklga ajratish ko'nikmasi rivojlanadi.

Navbatdagi rasmimiz gul bo'lib, u doira va yarim aylana, to'g'ri to'rt burchak yordamida tasvirlanadi. Gul markazi kichik doira, barglari esa bir nechta doiralardan tashkil topadi (5-rasm).



4-rasm



5-rasm

Bu topshiriq bolalarning estetik tasavvurini rivojlantiradi. Bu bolaga murakkab tasvirlarni qo'rqmasdan chizishga motivatsiya beradi. Bola geometrik asosni chizgach, unga mayda detallar - ko'z, barg, to'lqin, naqsh, panja, soya va qirralarni qo'shadi. Shu jarayon orqali rasm asta-sekin real ko'rinishga keladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations): Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga rasm chizishni o'rgatishda geometrik shakllardan foydalanish eng samarali metodlardan biridir. Bu usul bolalarda tasavvur, fazoviy fikrlash, analiz-sintez ko'nikmasi mustaqil ijodkorlik, estetik tafakkur kabi muhim sifatlarni shakllantiradi. Geometrik figuralarga asoslangan rasm chizish jarayoni bolalar uchun qiziqarli, oson, tushunarli va pedagogik jihatdan samarali bo'lib, ular murakkab tasvirlarni yasashga bosqichma-bosqich tayyorlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Vigotskiy L.S. Bola psixologiyasi. -Toshkent: O'qituvchi, 1991.
2. Qodirova R., Tursunov Sh. Maktabgacha pedagogika. -Toshkent: Fan, 2012.
3. Axmedov A., Muhammadiyev A. Maktabgacha ta'limda tasviriy faoliyat metodikasi. -Toshkent: O'qituvchi, 2016.

4. Boymetov B., Abdirasilov S. Chizmachilik va tasviriy san'at asoslari. - Toshkent: "G'.G'ulom" nashriyot uyi, 2004.
5. Azimova B.Z. Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi. - Toshkent: O'qituvchi, 1984.

